



# MOTURIDIYLIK

THE MATURIDIYYA - الماتريدية - МАТУРИДИЗМ

Narsalarning asl mohiyatini  
bilishga olib boradigan yo'llar - hissiy anglash,  
rost xabar va aqldir.





**Doniyor MURATOV<sup>a</sup>** 

<sup>a</sup> Candidate of Historical Sciences, Associate  
Professor of the International  
Islamic Studies Academy of Uzbekistan  
A.Qodiriy Str. 11, Tashkent, 100011, Uzbekistan  
E-mail: doniyorhoji@mail.ru

## TOBEIYLARNING HADIS ILMIDAGI O'RNI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada islom ilmlari orasida eng muhimlaridan biri hisoblangan hadis ilmi rivojida tobeiyarning tutgan o'rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tobeiyar – sahobiylarni ko'rib, ulardan ilm olgan, Qur'on oyatlari va hadislarni keyingi avlodlarga yetkazishda asosiy ko'priq vazifasini bajargan zotlardir. Maqolada olimlar tomonidan tobeiy atamasiga berilgan turli ta'riflar, ularning ilmiy maqomi hamda roviylikdagi mas'uliyati manbaviy dalillar asosida yoritilgan. Shuningdek, tobeiyarning tabaqalarga bo'linishi, hadislarni rivoyat qilishdagi uslublari, sahobalardan hadisni qabul qilishdagi ehtiyotkorlik va aniqlik tamoyillari, jarh va ta'dil ilmining shakllanishiga qo'shgan hissalar chuqur tahlil qilinadi.

Tobeiyarning hadislarni nafaqat yodlab qabul qilganlari, balki ularni fihiy masalalar bilan bog'lab sharhlaganliklari, shariat ilmlarining rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatganliklari ilmiy misollar bilan asoslanadi. Ayniqsa, Hasan al-Basriy, Sa'id ibn Musayyab, Ibrohim Naxaiy, Omir Sha'biy kabi mashhur tobeiyarning ilmiy merosi alohida o'rganilib, ularning hadis ilmi va fiqh maktablari shakllanishidagi o'rni ko'rsatib berilgan. Maqola yakunida tobeiyarning ilmiy faoliyati musulmon ilmiy merosining uzluksizligini ta'minlashda muhim tarixiy bosqich bo'lgani ta'kidlanadi.

**Kalit so'zlar:** Tobeiy, sahobiy, hadis ilmi, roviylar tabaqasi, isnod, mursal hadis, jarh va ta'dil, fiqh maktablari, ilmiy meros, rivoyat uslublari, muhaddislar.

## THE ROLE OF THE TABI'UN IN THE SCIENCE OF HADITH

**Abstract.** This article provides an analytical and scholarly examination of the role of the Tabi'un in the development of Hadith sciences, which occupy an important place within the Islamic sciences. The Tabi'un are those who met the Companions of the Prophet, learned from them, and served as a vital link in transmitting the Qur'anic verses and the Prophetic traditions to subsequent generations. The article discusses various definitions given to the term Tabi'i by classical scholars, their scholarly status, and the responsibility they carried as narrators, supported by authoritative sources. Moreover, the categorization of the Tabi'un into different generations, their methods of narrating Hadith, their caution and precision in receiving reports from the Companions, and their contribution to the formation of the science of al-jarh wa al-ta'dil are examined in depth.

The study further demonstrates that the Tabi'un not only memorized and transmitted Hadith, but also interpreted them in connection with jurisprudential issues, thus directly influencing the development of Islamic legal sciences. Particular emphasis is placed on the scholarly legacy of prominent Tabi'un such as Hasan al-Basri, Sa'id ibn al-Musayyab, Ibrahim al-Nakha'i, and Amir al-Sha'bi, highlighting their roles in shaping Hadith scholarship and the early schools of fiqh. The article concludes by emphasizing that the scholarly activities of the Tabi'un represent a crucial historical stage in ensuring the continuity of the intellectual and religious heritage of the Muslim community.

**Keywords:** Tabi'un, Companions of the Prophet, Science of Hadith, Classification of Narrators, Isnad, Mursal Hadith, Jarh and Ta'dil, Schools of Fiqh, Scholarly Heritage, Methods of Transmission, Muhaddithun.

## KIRISH

Hadis ilmiing muhim tarmoqlaridan biri – roviylar ilmini o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Hadis roviylari ikki qismga bo'linadi: sahobiylar va sahobiylardan boshqalar. Boshqalar deganda tobeiy-lardan boshlab hozirgi kungacha yashagan olimlar nazarda tutiladi. Hadislar, Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning qavl, fe'l va taqrirlarini o'z ichiga olib, shariatning ikkinchi manbai sifatida Qur'oni karimdan keyingi o'rinda tursada, ularning haqiqiy ma'nosini tushunish, sahihligini tekshirish va ulardan iroda qilinadigan diniy hukmlarni aniqlashda tobeinlar alohida mavqega ega.

Tobeiyar – bu hadislarning ma'nosini chuqurroq tushunish, ularning mavzulariga doir fikrlarni bayon etish, shuningdek, ularning ahkomi va hikmatini izohlashda sahobiylardan keyingi o'rinda turadilar. Hadislarni to'g'ri anglash va ularga asoslangan fiqh ilmini rivojlantirishda tobeinlarning rolini chuqur o'rganish – bu nafaqat ilmiy, balki ijtimoiy-ma'naviy jihatdan ham muhimdir.

Tobeiyar kabi turli shakl va usullar orqali rivoyatlarni kamchiliksiz saqlashga harakat qilib kelishdi. Bu borada tobeiyarning Qur'on va hadislarni tushuntirish va sharhlashda hadis ilmida juda katta o'rni bor.

## ASOSIY QISM

Hadis ilmi tarixida sahobiyni ko'rgan va ular bilan gaplashib, ilm olgan kishilar tobeiylardir. Atama sifatida "tobeiy" yoki "tobe" so'zi qo'llaniladi (Zayniddin Iroqiy, 2023:576). Ko'pligi "tabiun" bo'lib, lug'atda, "ergashuvchi", "ortidan yuruvchi" ma'nolarini bildiradi (Tahhon, 2004:247). Bu huddi "u falon kishiga ergashdi", "shogird ustozining yo'lidan yurdi" kabitdir.

Hadis ilmi istilohida esa, Rasulullohning (s.a.v.) sahobiylari bilan suhbatdosh bo'lgan kishilarga tobeiyar, deyiladi (Nuriddin Itr, 1988:147).

Yuqoridagilardan tashqari, tobeiy ta'rifiga olimlar tomonidan turlicha ta'riflar berilgan. Bir ta'rifda, "sahobiyni uchratgan, Payg'ambar (s.a.v.) ga imon keltirgan va musulmon holatida vafot etgan kishi" (Molikiy, 2002:56), deyilgan. Boshqa o'rinda "Vahiyning nozil bo'lishiga guvoh bo'lgan Rasululloh (s.a.v.) sahobiysi bilan suhbatdosh bo'lib, ulardan din va sunnatlarni o'rgangan kishi" (Naysoburiy, 1977:42), deyilgan. Olim Muhammad Molikiy muhaddis Xatib

Bag'dodiyning (vaf. 1070-y.) "Tobeiyning sahobiy bilan suhbat qilishini shart qilib, faqat uchrashishning o'zi yetarli emasligini" (Molikiy, 2000:231), keltiradi. Muhaddis olimlardan Imom Muslim, Imom Hokim Naysoburiy, Abu Bakr ibn Said Azdiy kabilar tobeiy sahobiyni uchratgani yetarli deganlar.

«Tobeiy – sahobiyni ko'rgan kishi» (Saxoviy, 2005:145) ta'rif bilan tobeiylik uchun uchrashish va ko'rishish yetarli bo'ladi. Hatto ikki tomondan biri ko'rgan, lekin ikkinchisi ko'rmagan bo'lsa ham, masalan, ikki tomondan biri ko'r bo'lsa – tobeiy hisoblanaveradi. Bunda tobeiyning musulmon bo'lishi, erkak yoki ayol bo'lishi, ozod yoki qul bo'lishi ahamiyatli emas (Sayyid Muhammad, 2001:440).

Hofiz Abdulg'aniy shunday deydi: "Yahyo ibn Abu Kasir 747-yilda vafot etgan, tobeiy-lardan hisoblanadi" (Saxoviy, Muhammad, 2005:146). Abu Hotim Roziy aytadi: "U kishi sahobiyni ko'rgani sababli tobeiy hisoblanadi" (Saxoviy, Muhammad, 2005:147). Lekin ba'zi olimlar ko'rishning o'zi asos bo'la olmasligini aytganlar. Hokim Naysoburiy: "Ko'rishning o'zi yetarli emas, Anasni eshitish kerak edi" (Naysoburiy, Hokim, 1977:42), deb aytgan. Tobeiy sahobiyni eshitishi shart ekanini Imom Suyutiy ham ta'kidlab o'tgan (Suyutiy, Jaloliddin, 2016:239).

Yana bir qarash imom Abu Hotim Muhammad ibn Hibbon Bustiyga (vaf. 3965-y.) oid bo'lib, u shunday deydi: "Tobeiy – sahobiyni ko'rgan shaxs bo'lib, u uning hadisini yod oladigan yoshda bo'lishi kerak" (Bustiy, 1973:270). U "Siqot" asarida Xalaf ibn Xalifa tarjimai holini berganidan keyin shunday degan: "Xalaf ibn Xalifa sahobiyni ko'rgan bo'lsa-da, tobeiy hisoblanmaydi, chunki u kichik bola bo'lgani uchun Amr ibn Harisni ko'rgan faqat undan hech narsa yodlab olmagan, faqatgina ko'rgan, xolos" (Bustiy, 1973:271).

Tobeiy atamasiga berilgan ta'riflardan mashhuri Xatib Bag'dodiyga (vaf. 463/1071-y.) oid bo'lib, u shunday deydi: "Tobeiy – sahobiy bilan suhbat qilgan shaxsdir" (Saxoviy, Muhammad, 2005:145-146). Tobeiy sifatiga ega bo'lish uchun u sahobiyni ko'rgan va u bilan bir vaqtda yashagan bo'lishi kerak. Tobeiyning sahobiydin rivoyat qilish sharti qo'yilmagan.

Yuqorida aytilgan, "tobeiy – sahobiyni ko'rgan kishi" degan ta'rif ko'pchilik muhaddislarning fikri hisoblanadi. Shu bilan birga tobeiy sahobiyya, Tavba surasi, 100-oyati "Muhojirlar va ansorlarning dastlabki peshqadamlari hamda ular ortidan ezgulik bilan borganlardan Alloh rozi bo'ldi"ga binoan "sahobiyya yaxshilik bilan erganshgan" bo'lishi lozim

ekanini ulamolar alohida ta'kidlab o'tganlar (Tabriziy, 2008:712). Yuqorida kelgan oyat tobeiyning fazilatini ham ko'rsatib beradi.

Hatto hanafiy mazhabi olimlaridan, muhaddis Ali Qoriy: "Agar tobeiy sahobiyni kofir holda uchratib, keyin imon keltirsa va shu musulmon holida vafot etsa tobeiy bo'ladi", degan (Qoriy, 1999:595).

## MUHOKAMA

Muhaddislar tobeiyarni bilish muhim ekanini alohida ta'kidlab o'tganlar. Jumladan, Hokim Naysoburiy: "Inson bu ilmdan g'ofil bo'lib, sahobiy va tobeiy orasini ajrata olmas ekan, tobeiy va tabaa tobeiyning farqiga ham bormaydi", degan (Hokim Naysoburiy, 1977:41). Shu bilan birga tobeiyarni bilish muttasil bilan mursal isnodni, mavquf va maqtuni ajratib olish uchun kerak bo'ladi (Mahmud Tahhon, 2004:248) hamda sahobiy va tobeiyarni yoki tobeiy va tabaa tobeiyning farqi ko'rinadi (Saxoviy, 2008:476).

Tobeiyar hadis ilmi nuqtai nazaridan roviylar orasida alohida tabaqa hisoblansada, olimlar tobeiyarning o'zini yana turli tabaqalarga ajratganlar. Chunki tobeiyarni yaxshilab o'rganib chiqish natijasida ularni daraja va martaba jihatidan turlicha ekani ko'rinadi. Bu asosan, sahobiylar bilan ko'rishish, ulardan rivoyat qilish, hadislarning siyq'asi, sahobiylardan ilm olish, fatvo berishga layoqati, yashashgan shahar yoki mintaq kabi omillarga bog'liq hisoblanadi.

Imom Muslim ibn Hajjoj (vaf. 875-y.) tobeiyarni uch tabaqaga ajratgan, ammo bu taqsimotning asosini ko'rsatmagan (Sayyid Muhammad, 2001:441). Mashhur olim Ibn Sa'd (vaf. 845-y.) tobeiyarni to'rt tabaqaga ajratgan (G'ovriy, Sayyid Abdulmajid, 2009:404). Xalifa ibn Xayyot (vaf. 855-y.) esa ularni aniq sonni ko'rsatmasdan, turli tabaqalarga ajratgan.

Muhaddislardan Hokim Naysoburiy (vaf. 1015-y.) esa ularni o'n besh tabaqaga ajratgan: birinchi tabaqa, Rasululloh (s.a.v.) tomonlaridan janatniy ekani xabar berilgan o'n kishini uchratganlar bo'lib, ular qatoriga Said ibn Musayyab, Qays ibn Abu Hozim, Abu Usmon Nahdiy, Qays ibn Ubod, Abu Rajo Utorudiy kabilar kiradi. Ikkinchi tabaqa, Asvad ibn Yazid, Alqama ibn Qays, Masruq ibn Ajda, Abu Maslama ibn Abdurahmon, Xojira ibn Zayd va boshqalar. Uchinchi tabaqaga, Omir ibn Sharohil Sha'biy, Ubaydulloh ibn Abdulloh ibn Utba, Shurayh ibn Horis va boshqalar kiradi. Yana: "Ular 15 tabaqa bo'lib, ularning oxirisi Basrada Molik ibn Anasni uchratgan, Kufada Abdulloh ibn Abu Avfoni uchratgan, Madinada, Soib ibn Yazidni uchratgan, Misrda Horis

ibn Juzni uchratgan va Shomda Abu Umoma Bohiliyni uchratganlardir", degan (Naysoburiy, 1977:42). Shu bilan birga ular orasida madinalik yetti faqih (Said ibn Musayyab, Qosim ibn Muhammad ibn Abu Bakr, Urva ibn Zubayr, Xorija ibn Zayd ibn Sobit, Abu Salama ibn Abdurahmon ibn Avf, Ubaydulloh ibn Abdulloh ibn Utba va Sulaymon ibn Yazor) bor. Olimlardan Yahyo ibn Said Qatton, Madina faqihlarni 17 nafarini sanab o'tgan va yuqoridagilarga qo'shimcha kiritgan. Hokim Naysoburiy muxazramlarni ham tobeiyar qatorida zikr qilib o'tgan (Naysoburiy, 1977:44).

Ba'zi muhaddislar tobeinlarni beshta tabaqaga (darajaga) ajratgan (Itr, Nuriddin, 1988:148):

1. Katta tobeiyar – sahobiylar bilan ko'p suhbatda bo'lgan va ularning yaqin shogirdlari bo'lganlar.

2. O'rta tobeiyar – sahobiylarni uchratgan, ammo ko'p suhbatda bo'lmaganlar.

3. Kichik tobeiyar – sahobiylarning so'nggi avlodlari bilan bog'langanlar.

4. Eng kichik tobeiyar – faqat bitta yoki ikkita sahobiyni uchratganlar.

5. Oxirgi tobeiyar – sahobiylardan faqat bitta rivoyat eshitganlar.

Shuningdek, ba'zi muhaddislar tobeiyarni uch toifaga bo'lgan, bu taqsimot ilm ahli kitoblarida mashhur bo'lgan:

Katta tobeiyar tabaqasi – ular katta sahobiylardan rivoyat qilganlar. Boshqacha qilib aytganda, "asharai mubashshara" va shu kabi katta sahobiylarni ko'rganlar tabaqasi. Katta sahobiylar boshqalaridan avvalroq vafot etib ketgani uchun ularning rivoyatlari asosan katta tobeiyarlarda uchraydi. Bu tabaqaga Said ibn Musayyab, Urva ibn Zubayr, Alqama ibn Qays kabilar kiradi. Biroq muhaddis Ibn Saloh (vaf. 1245-y.) asharai mubashsharadan hadis eshitib rivoyat qilgan yagona kishi Qays ibn Abu Hozim ekanini ta'kidlab, tobeiyarning boshqa birortasi bunga erishmaganini aytadi (Ibn Saloh, 1986:303). Shuningdek, hanafiy mazhabi olimlaridan hisoblangan Abdurahim Ayniy (vaf. 1487-y.) o'zining "Sharh alfiya al-Iroqiy fi ulum al-hadis" asarida ham Said ibn Musayyabni asharai mubashsharani barchasini ko'rmaganini aytadi (Abdurahim Ayniy, 2011:317).

O'rta toifa tobeiyar – ular o'rta yoshdagi sahobiylardan hamda katta tabaqa tobeiyarlardan hadis rivoyat qilganlar. Bu tabaqaga Hasan Basriy, Muhammad ibn Sirin, Mujohid, Ikrima, Qatoda, Sha'biy, Zuhriy, Ato, Umar ibn Abdulaziz, Solim ibn Abdulloh ibn Umar ibn Xattob kabilar kiradi.

Kichik tobeiyar tabaqasi – ular Rasululloh (s.a.v.) davrida yosh bo'lgan, shu bilan birga umri uzun

bo'lib, kichik tobeiyar davriga kelib qarib qolgan sahobiylardan hamda katta va o'rta tabaqa tobeiyarlardan hadis rivoyat qilganlardir. Ular yosh bola vaqtlarida qari sahobiylarni ko'rganlar (Maqdisiy, Muhammad, 1981:68-69). Ular qatoriga Ibrohim Naxa'iy, Abu Zinod Yahyo ibn Sa'id, imom Abu Hanifa kabilar kiradi. Ular asosan kichik tabaqa tobeiyarlardan dars olganlar.

Bu taqsimotning asosi shuki: sahobiylar va tobeiyar o'rtasidagi ko'rishish hisobga olinadi. Katta tobeiyar – bu avvalgi va ko'p fazilatga ega bo'lgan katta sahobiylardan rivoyat qilganlar. Ular tobeiyarning birinchi tabaqasidir va shu holda davom etadi.

Tobeiyar davrda hadislarni yozib borish sahobiylar asridagidek davom etti. Biroq bu asrda yozish faoliyati naql qilishdan tashqari, tadvin (ya'ni, hadislarni bir devonda jamlash) bosqichiga o'tdi va tasnif qilish ham boshlandi. Boshqacha qilib aytganda tobeiyar davrida hadislarni rasmiy ravishda yozish boshlandi.

Hadislarni yozishni birinchi bo'lib Muhammad ibn Shihob Zuhriy (vaf. 741-y.) boshlab berdi. Bu haqda Hofiz Ibn Hajar Asqaloni "Fath al-Boriy" asarining "Ilm" bobida shunday yozadi: "Xalifa Umar ibn Abdulazizning buyrug'i bilan birinchi asr oxirida tobeiy ulamolar orasida birinchi bo'lib Ibn Shihob Zuhriy hadislarni tadvin qildi. Undan keyin tadvin ishlari yanada rivojlandi. Shundan so'ng hadislarni tasnif qilish ishlari boshlandi. Shu tariqa, Allohga shukrki, ko'p yaxshiliklar bo'ldi" (Asqaloni, Ibn Hajar, 2013:436).

Bu haqda Hofiz Ibn Hajar Asqaloni "Fath al-Boriy" asarining "Ilm" bobida shunday yozadi: "Xalifa Umar ibn Abdulazizning buyrug'i bilan birinchi asr oxirida tobeiy ulamolar orasida birinchi bo'lib Ibn Shihob Zuhriy hadislarni tadvin qildi. Undan keyin tadvin ishlari yanada rivojlandi. Shundan so'ng hadislarni tasnif qilish ishlari boshlandi. Shu tariqa, Allohga shukrki, ko'p yaxshiliklar bo'ldi" (Asqaloni, 2000:275). Ibn Shihob haqida ko'plab maqtovlar bo'lib, ulardan birida Abu Zinod shunday tavsiflaydi: "Men va Ibn Shihob aylanib yurganmiz, Ibn Shihob bilan birga qog'oz va daftarlar ham bor edi». Boshqa o'rinda aytdi: "Biz halol va haromni yozar edik. Ibn Shihob esa, eshitgan barcha narsasini yozar edi. Odamlarning unga ehtiyoji tushganda u odamlarning eng olimi bo'lganini bildim" (Zahabiy, 1988:228). Solih ibn Kayson: "Men Zuhriy bilan ilm talab qildim, Payg'ambarning (s.a.v.) sunnatlarini yozdik, keyin menga, "Kel sahobiylardan kelgan

narsalarni yozamiz", dedi. U yozdi, men yozmadim. U najotga erishdi, men erishmadim", degan (Jamoliddin Mizziy, 1992:434).

Shuningdek, Said ibn Jubayr, Abdulloh ibn Muhammad ibn Uqayl, Muhammad ibn Abdurahmon, Muso ibn Uqba kabi bir qator tobeiyar hadislarni yozib yurganlari haqida manbalarda ma'lumotlar uchraydi (Muhammad Abu Zahv, 1984:309).

Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish lozimki, ba'zilar kitobni yod olish uchun yozar edilar. Agar kitobni yodlab olgan bo'lsa, uni yoqib yuborardi. Ular kitoblarini yomon odamlar qo'liga yoki noo'rin joyga qo'yilmasligi e'tiboridan yoqib yuborganbo'lishi mumkin. Tobeiyarlardan Ibrohim Naxa'iy: "Inson nimanidir yozsa o'shanga suyanib qoladi", degan (Zahabiy, Shamsiddin, 1996:522). Imom Sha'biy ham: "Bu kungacha oqqa qorani tushurmadim, biror kishi hadis aytsa, uni yodlab olganman", degan.

Bundan tashqari ba'zi, Abdurahmon ibn Oiz Azdiy kabi tobeiyar yozib olganlarini saqlab o'zlaridan keyingilarga qoldirganlar (Zahabiy, Shamsiddin, 1996:488). Azdiy esa yozib olganlarini vafotidan oldini biror kishiga vasiyat qilmay qoldirgan. Hatto ba'zilar Abu Qiloba qilganidek vafot etish vaqtida, kitoblarini ahli-oilasiga topshirishni vasiyat qilar edilar. Abu Qilobaning yozib olganlari shunchalik ko'p ediki, Ayyub ularni ko'tarish uchun o'n dirhamdan ortiq haqqa kitob tashuvchi ijarachi olishga majbur bo'lgan ekan. Imom Molik: "Abu Qiloba vafot etganida, menga yetib keldiki, u bir xachir ko'taradigan kitob qoldirdi, degan" (Zahabiy, 1996:469).

Tobeiyarlarning ba'zilar Abdurrahmon ibn A'zam Azdiy Mahsiy haqida imom Zahabiy shunday degan: "U vafot etganida faqat sahifa va kitoblar qoldirgan" (Zahabiy, 1996:488). Manbalarda Hims ahli (Shomdagi shahar) Ibn Oizning kitoblaridagi hukmiy masalalarni olishar edi, deyilgan.

Yuqorida aytilganidek, ba'zi tobeiyar yolg'on va soxta rivoyatlarga qarshi kurashish maqsadida hadislarni buyruq bilan yozishgan. Bunga Ibn Shihob Zuhriy va Ibn Hazmlarni misol qili mumkin. Ularga xalifa Umar ibn Abdulaziz hadislarni yozib borishga buyurgan. Ammo ba'zilar bunga qarshi bo'lib, yozishni butunlay yoqtirmas edilar, chunki ular avvalgi salaflar davrida yozish odati yo'qligini e'tiborga olishardi.

Xulosa qilib aytganda, tobeiyar davrida hadislarni yozib borish sekin asta odat tusiga kirib borgan deyish mumkin.

Tobeiyar hadislarni sahobiylardan o'rganishda ko'plab savollar berganlar. Shuningdek, hadis talabida munozara va muzokarasini amalga oshirganlar.

Ibrohim ibn Sa'd otasidan aytadi: "Ilmda Ibn Shihobdan oldinga o'tmadik. U kiyimini qattiq bog'lib, xohlagan narsasini so'rab olar edi. Biz gapirishdan to'silar edik" (Jamoliddin Mizziy, 1992:433).

Mashhur tobeiy Said ibn Jubayr: "Ey yoshlar jamoasi, mendan so'rab qolinglar, ehtimol, men sizlarning oldingizdan ketib qolishim mumkin" (Ya'qub Fasaviy, 1974:713), der edi. Said ibn Musayyab: "Bir dona hadis talabida kunlar va kechalari safar qilar edim", degan (Ya'qub Fasaviy, 1974:468-469).

Olim Abu Hamza: "Abdulloh va Alqama Kindaning eshigi oldida odamlarni ikki qatorga saflab qo'yar, Abdulloh bir kishini, Alqama bir kishini o'qittirar, agar ulardan forig' bo'lsalar, haj, halol va harom masalasida muzokara qilar edilar", degan (Zahabiy, Shamsiddin, 1996:47).

Tobeiylar har bir ishda sahobiylarni o'zlariga o'rnak va namuna qilib olganlar. Chunki sahobiylar Rasululloh (s.a.v.)ni ko'rgan, u kishiga imon keltirib, saodat asrining odamlari bo'lganlari uchun. Jumladan, Abdulloh ibn Mas'ud (r.a.)ni Alqama, Asvad, Masruq, Abiyda, Amr ibn Sharhbil va boshqalar qattiq ushlab, butun ilmini olishgan. Shu bilan birga barcha tobeiylarning shunday olim sahobiylardan o'zlari lozim deb topgan ustozlari bo'lgan. Sahobiylar asosiy faoliyatini qayerda olib borishgan bo'lsalar, o'sha yerlardagi tobiylarga ustozlik qilganlar. Yuqorida Abdulloh ibn Mas'ud (r.a.) Kufa shahrida o'sha yerlik tobeiylarga ustozlik qilgan bo'lsa, Ibn Abbos (r.a.) Makkada, Oisha, Abu Hurayra (r.a.) Madinada, Abdulloh ibn Amr ibn Os (r.a.) kabilar Misrda.

Tobeiylar hadislarni qanday o'rgangan bo'lsalar, o'z shogirdlari bo'lmish, tabaa tobeiylarga ham shunday o'rgatganlar. Ular hadislarni o'zlarining zimmalaridagi omonat sifatida qabul qilib, uni yetkazish va o'zlaridan keyingi avlodlarga tarqatishga sidqidildan harakat qildilar. Xususan, ular yashagan davrda siyosiy va fikriy ixtiloflar hamda islomga nisbatan nafrat bilan namoyon bo'lgan turli bid'atlar hamda firqalar paydo bo'lgan edi. Shuningdek, millat, jins, til, qabila va vatan asosidagi taassub, dini va davlatga bo'lgan sadoqatsizlik, manfaat uchun dindan foydalanish, nasihat va hikoyalar orqali rizq topish, ba'zi obid, zohid, matasavviflarning bilimsizligi hamda hokim va amaldorlarga yoqish maqsadida hadislarni o'zgartirish kabi holatlar paydo bo'ldi.

Natijada hadislarni to'qib chiqarish va yolg'on ko'payib ketdi. Lekin tobeiynlar bu omonatga xiyonat qilmay, yolg'onchi va to'qimachilarga qarshi kurash-

dilar. Ular hadis xizmatini yuksak mas'uliyat bilan bajardilar. Bu yo'lda ular quyidagi muhim ishlarga alohida e'tibor berdilar:

1. Isnodga rioya qilish va rivoyat qiluvchidan dalil talab qilish:

Jumladan, fitna natijasida hazrati Usmon ibn Affon roziyallohu anhuning shahid bo'ldi, musulmonlar firqa va guruhlariga bo'lindi. Bu esa, Rasululloh (s.a.v.) nomlaridan har xil rivoyatlar to'qib chiqarilishini kuchaytirdi. Shunda ulamolar hadis rivoyatida isnodga qattiq ahamiyat berish va rivoyat qiluvchidan dalil so'rashni lozim topdilar. Bu usul rivoyatning sahihligini aniqlashda muhim shart bo'ldi.

Mashhur tobeiy Ibn Sirin: "Oldinlari isnod so'ralmasdi. Fitna sodir bo'lgandan keyin: "bizga hadis roviylaringizning ismlarini aytinglar", deb aytadigan bo'lishdi. Sunnat ahlidan bo'lsa, hadislarini olinar, bid'at ahlidan bo'lsa, olinmas edi", degan (Naysoburiy, 2006:8).

Muhaddis tobeiylardan Sha'biy: "Robi ibn Xaysamga: Bu hadisni senga kim aytdi, dedim. U Amr ibn Maymun Udiy, dedi. Men Amr ibn Maymun Udiyning uchratdim va, bu hadisni senga kim aytdi, dedim. U: Abdurahmon ibn Abu Laylo, dedi. Men Ibn Abu Layloni uchratdim va, Senga kim aytdi, dedim. U: Rasululloh (s.a.v.)ning sahobiysi Abu Ayyub Ansoriy", dedi" deb keltiradi (Qurtubiy, 1967:55).

Tobeiylar ham hadislarni tarqatish maqsadida ilmiy halqalar qilganlar. Bu bilan boshqalarga ilm o'rgatgan bo'lsalar, bir vaqtning o'zida o'z ilmlarini ham oshirib borganlar. Imom Zahabiy keltirgan rivoyatlarda, Ibn Sirin shunday deydi: "Kufaga keldim, sahobiylar ko'p bo'lsalarda, uning katta ilmiy dars halqasi bor edi, degan». Abdulloh ibn Umar (r.a.) Sha'biyning kishilarga g'azotlar haqida mukammal tarzda, nozik nuqtalarigacha qoldirmasdan aytib berayotganini diqqat bilan eshitib: "Darhaqiqat, men bu yigit gapirib berayotgan g'azotlarning ayrimlarini o'z ko'zim bilan ko'rganman, qulog'im bilan eshitganman, lekin shunga qaramay, bu yigit mendan ko'ra ularni chiroyli holatda tushuntirib bermoqda", degan edi (Zahabiy, 1990:126).

## NATIJA

Shu bilan birga olimlar tobeiylar tabaqasini "A'mash, Ibn Avn tabaqasi", "Zuhriy, Ayyub tabaqasi", "Ibn Musayyab, Masruq tabaqasi" va hokazo kabilar bilan keltiradilar. Bu o'rinda Zuhriy va yoshda unga yaqin bo'lganlar tabaqasi nazarda tutilgan. Tobeiylarni

tabaqalarga bo'lib o'rganish hadis ilmidagi sanaddagi uzilish holatlarini, "mursal" rivoyatlarni, tadlis o'rinlarni va shular kabi hadis ilmiga oid boshqa jihatlarni o'rganishga yordam beradi.

O'rni kelganda aytish lozimki, tobeiylar davri Rasululloh (s.a.v.) vafot etganlaridan boshlangan. Tobeiylardan eng birinchi vafot etgani Abu Zayd Muammar ibn Zayd bo'lib, u 651-yili o'ldirilgan. Shu bilan birga ularning oxirgisi 797-yilda vafot etgan Xalaf ibn Xalifa bo'lib, u oxirgi sahobiy bo'lmish Abu Tufayl Omir ibn Vosilani Makkada ko'rgan. Shu bilan tobeiylar asri 797-yili nihoyasiga yetgan.

Olimlar sahobiylar adadini tahminiy qilib aytgan bo'lsalarda, tobeiylar bo'yicha fikr bildirmaganlar. Chunki, ular sahobiylar sonidan ko'p hamda juda katta hududga tarqalib ketganlari uchun sanashning iloji bo'lmagan (Hasaniy, Muhammad, 2003:57). Shu nuqtai nazardan tobeiylarning asosan mashhurlari yoki hadis rivoyat qilganlari haqida ma'lumotlarni manbalardan olish mumkin.

Hadis ilmida yana bir masala borki, u ham bo'lsa tobeiylarning jarh va ta'dil ilmidagi o'rnini ko'risatishdan iborat. Muhaddislar sahobiylardan boshqa barcha roviylarni "jarh va ta'dil"<sup>1</sup> qilganlar.

Olimlar tobeiylarning jarh va ta'dildagi maqomi borasida ixtilof qildilar:

1. Ba'zilar ularning fazilat va darajalarida farq bo'lsa ham, barchasiga adolat sifatini berganlar. Ular bu fikrlarini quyidagi hadislarga asoslanib aytganlar: "Insonlarning eng yaxshilari mening asrimdagilar, keyin ulardan keyin kelganlar, keyin yana ulardan keyin kelganlar. Keyin esa shunday bir qavm keladiki, ulardan birining guvohligi qasamidan ilgarilab, qasami esa guvohligidan o'zib ketadi" (Buxoriy, Muhammad, 2002:644). Yana bir hadisda: "Insonlar ustiga bir zamon keladi, bir guruh insonlar g'azot qiladilar. Shunda ulardan: "Oralaringizda Rasulullohning (s.a.v.) sahobiysi bormi?" deb so'raladi. "Ha", deyishadi. Ular uchun fath bo'ladi. Keyin insonlarga yana bir zamon keladi, ularning bir guruhi g'azot qiladi. Shunda ulardan: "Oralaringizda Rasulullohning (s.a.v.)sahobiylariga hamsuhbat bo'lgan kishi bormi?" deyiladi. "Ha", deyishadi. Ularga fath nasib bo'ladi. Keyin yana bir zamon keladi, bir guruh odamlar g'azot qiladilar. Shunda: "Oralaringizda Rasulullohning (s.a.v.) sahobiylari bilan birga hamsuhbat bo'lganlarga

hamsuhbat bo'lganlar bormi?" deyiladi. "Ha", deyishadi. Ularga ham fath bo'ladi" (Buxoriy, 2002:897). Yana bir hadisda: "Meni ko'rgan va mening safdoshim ichingizda ekan, sizlar yaxshilikda davom etasizlar. Allohga qasamki, modomiki meni ko'rganni ko'rgan va mening do'stim bo'lgan odamlar ichingizda ekan sizlar yaxshilikda bardavomsizlar" (Kufiy, Ibn Abu Shayba, 2015:171). Shuningdek, tobeiylarning fazilati bo'yicha boshqa rivoyatlar ham kelganidan, ular sahobiylardan keyingi insonlarning yaxshilaridan ekani ko'rinadi.

2. Olimlarning jumhuri esa ularning adolati sobit bo'lishi uchun tegishli dalil va sabablar bo'lishi kerak, deb hisoblashgan. Ulardan kimdadir quyidagi hadisda zikr qilingan mazammatali sifatlar topilsa, uning adolati botil hisoblanadi, deb hisoblashgan. Shuningdek, "Insonlarning eng yaxshilari mening asrimdagilar..." – bu hadisni qisman olib, o'sha davrdagi barchaga umumiy deb hisoblash emas, balki har bir shaxsning holatiga qarab baholash kerak, deb bilishgan. Bu esa Usmonning (r.a.)shahid qilinib, islomda fitnalar ko'paygandan keyingi davrda, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etdi. Chunki, musulmonlar firqalarga va guruhlariga bo'lindi, ba'zilarining ijtihodi to'g'ri chiqdi, ba'zilariniki esa xatolikka yuz tutdi.

Birinchi guruh olimlari dalil qilib keltirgan hadislarda ko'pchilik nazarda tutilgan, biroq umumiy barcha emas. Ehtimol, ikkinchi fikr to'g'ri va qabul qilishga loyiqdir, chunki Payg'ambar hadisining sobitligi ehtiyot va tahqiq asosida bo'ladi.

Ular birinchi guruhning dalil qilib keltirgan hadislariga e'tiroz bildirib, ular ikkinchi asrda kelganlarni o'z ichiga olishini aytishdi. Bu esa ko'pchilikka xos emas, balki ba'zi kishilarga tegishli, deb hisoblashdi. Shunday ekan, bu guruh umumiy qoida sifatida qabul qilinmaydi.

Ikkinchi fikr eng aniq va eng maqbul, hatto ehtiyot jihatidan ham shundaydir. Chunki Payg'ambar (s.a.v.) hadislari ehtiyot va ehtiyotkorlik asosida aytilgan. Shu sababli, hozirgacha muhaddislar ushbu yo'lni tutib kelmoqda.

Ammo ularning adolatlari sobit bo'lishining yo'llari umumiy qilib quyidagicha bayon qilinadi: mashhurlik va keng tanilishi: u tobeiylardan biri sifatida yaxshi obro'ga ega bo'lishi, go'zal xulq va dinda mustahkamlikda Said ibn Musayyab, Urva ibn Zubayr, Hasan Basriy kabi taniqli bo'lishi kerak.

Sahobiylarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, muhaddislar ularni tanib olish yo'llarini ishlab chiqqanlar.

<sup>1</sup> Jarh va ta'dil – hadislarining ishonchlilik darajasini aniqlash maqsadida roviylarning shaxsiy-ma'naviy ayblari hamda fazilatlarini, ya'ni roviyning adolati va zabti haqida bahs yuritib, ularning ishonchli yoki ishonchsizligi haqida yakuniy xulosa chiqaruvchi hadis ilmining sohasi.

Bu narsa tobeylarni o'rganishda ham qo'llaniladi. Tobeylarni tanib olish yo'li va ularning adolati hamda zabti borasida ham so'z yuritish maqsadga muvofiq.

Tobeylarni tanish yo'li quyidagilarda qo'rinadi:

1. Bu borada shu sohani yaxshi bilgan ilm ahlidan kelgan xabar orqali.

2. Tobeiyning o'zi haqida aytishi – u Rasulullohning (s.a.v.) sahobiylaridan bir yoki bir nechtasidan hadis rivoyat qilgan bo'lsa yoki u bilan uchrashgani, so'zlashgani yoki uning rivoyati yoki unga tobeligi sobit bo'lgan bo'lsa – hatto bir kun yoki bir soat uchrashgan bo'lsa ham – va buni inkor qiluvchi yoki muxolif narsa topilmasa.

3. Sahobiyning xabar berishi orqali, u falonchi tobeiyni ko'rganini, u bilan gaplashganini aytsa, masalan, Ibn Umarning Sha'biyning yonidan o'tganida, u "mag'oziyini o'qiyotgan edi", shunda "u xuddi biz bilan birga bo'lgandek, u mendan ko'ra xotirasi yaxshiroq va bilimlir", degani kabi (Zahabiy, 1996:302).

4. Mashhur bo'lish, ya'ni odamlar orasida tobeiyo bo'lib tanilish. Masalan, Hasan Basriy, Ibn Sirin, Ato, Mujohid, Qatoda, Tovus, Ikrima, Nofe', Madinaning yetti faqihi kabi va boshqalar.

Tobeiylarning hifz va yodda saqlash (zabt) darajasini bilish yo'li quyidagilarda ko'rinadi: ularning rivoyatlari ishonchli roviylarning rivoyatlari bilan solishtiriladi. Agar ularning rivoyatlari ma'no jihatidan bo'lsa ham mos kelsa, ular zabtda mustahkam sanaladi. Agar mos kelmasa, u holda ular zabtda zaif sanaladi.

Ularining o'z rivoyatlari bir-biri bilan uzoq vaqt mobaynida qayta tekshiriladi. Agar bu vaqtlar davomida hech qanday o'zgarish bo'lmasa, ular zabtli ekani ma'lum bo'ladi. Agar o'zgarish bo'lsa, u holda ular zabtda mustahkam emas, deyiladi. Shuningdek, sanad va matnlarni maqlub<sup>2</sup> qilish orqali imtihon qilinishi orqali ularning zabti oshkor bo'lsa, demak, ular zabtli sanaladi. Aks holda esa, zabtda zaif hisoblanadilar.

Tobeiylarning hadisilarni o'rganish va rivoyat qilish yo'lida katta harakat va xizmatlarni amalga oshirganlar. Chunki tobeiyar sahobiylarning fazli va martabasini to'liq anglab yetdilar hamda ulardan hadis rivoyat qilganlarning maqomini ham bilib, e'tibor berdilar. Zero sahobiylar, Qur'ondan boshqa bo'lgan vahiyya asoslangan ilmni, ya'ni Payg'ambardan

(s.a.v.) kelgan so'zlar, ishlar, taqrirar va sifatlarni olib kelgan edilar.

Tobeiyar, shuningdek, sahobiylardan rivoyat qilingan hadis va boshqa barcha ma'lumotlarni yodlash va rivoyat qilishning zarurligini angladilar. Bu ma'lumotlar Payg'ambar (s.a.v.) hadislari bo'lib, sahobiylar bu ilmni yetkazishga mas'ul edilar. Shu sababli, tobeiyar sahobiylardan rivoyat qilishga va ulardan hadisni o'rganishga alohida ahamiyat berishdi. Ular sahobiylardan hadislarni yodlab olib, hadis xizmatida sidqidildan xizmat qilishdi. Bu ishni ular buyuk bir ibodat, ajr va savob manbai deb bilishdi. Shu tariqa ular hadis xizmatida alohida g'amxo'rlik va yetuklik bilan ish olib borishdi. Bu ulug' sa'y-harakatlarining samarasi bugungi kungacha yetib kelgan.

Tobeiyar orasida mashhur ayollar ham bor edi. Ular qatorida Muhammad ibn Sirinning singlisi Hafsa bint Sirinni keltirish mumkin. U kishi ko'plab erkak va ayol sahobiylardan hadis rivoyat qilgan muhaddisa hamda faqiha bo'lgan (Jamoliddin Mizziy, 1992:151). Hatto olti ishonchli deb e'tirof etilgan hadis to'plamlarida u rivoyat qilgan hadislar keltirilgan. Shuningdek, Amro bint Abdurahmon, Ummu Dardo, Zaynab bint Nabit (Anas ibn Molikning turmush o'rtog'i)lar mashhur tobeiyo ayollar qatoriga kiradi (Afof Abdulg'ofur, 2008:242).

Umuman olganda ko'plab tobeiyar hadis va fiqh ilmida mashhur bo'lib, sahobiylarning yo'lidan borganlar hamda o'zlaridan keyin ko'plab shogirdlarni qoldirganlar.

Tobeiylarning hadis ilmidagi xizmatlaridan biri – hadisni to'g'ri rivoyat qilishga harakat qilishlari bo'ldi. Bu hadisni sahobiyan qanday eshitgan bo'lsa, so'zma-so'z rivoyat qilishni anglatadi. Agar bunga imkon bo'lmasa, u holda hadis ma'nosini e'tiborga olib, uning ma'lum shart va me'yorlariga rioya qilib rivoyat qilinadi.

Ibn Avndan rivoyat qilinishicha: "Ibrohim, Sha'biy va Hasan hadislarni ma'nosiga keltirishar, Qosim, Ibn Sirin, Rajolar harfma-harf rivoyat qilishga e'tibor qilishar edi" (Zahabiy, 1996:559). Yana bir rivoyatda "Muhammad ibn Sirin hadisni harfma-harf keltirar, Hasan esa, ma'nosiga e'tibor berardi", deyilgan (Zahabiy, 1996:608).

Tobeiylarning hadis ilmiga qo'shgan hissalaridan yana biri roviylarning holatini bilishda jarh va ta'dil ilmi me'yorlarini ishlab chiqish bo'lgan. Masalan, Ibn Shihob Zuhriy "Amra mening nazdimda rostgo'ydir", degan. Shu bilan birga roviylar xotirasini tekshirib ko'rish ishlarini ham amalga oshirganlar.

<sup>2</sup> Maqlub – lug'atda "o'zgargan", "o'girilgan" ma'nosini bildiradi, muhaddislar istilohida esa hadis isnodi yoki matnidagi biror lafzning boshqasi bilan o'zgartirilishiga aytiladi. Shuningdek, matnning oldingi qismini keyingisiga yoki aksincha keyingi o'rin oldiniga almashtirilishi ham maqlub bo'ladi.

Tobeiylar hadisni o'rganishdan avval Qur'oni karimni yodlashgan hamda hadis o'rganish bilan birga fiqhdan ta'lim olishgan. Masalan, Hafs ibn G'iyos aytadi: "A'mashning oldiga kelib, menga hadis ayting, dedim. U: "Qur'onni yodlaganmisan?", dedi. Men: Yo'q, dedim. U: "Borib, Qur'onni yod ol, so'ng kelsang senga hadis aytib beraman, dedi. Men borib, Qur'onni yod oldim, unga kelib o'qib berganimdan so'ng menga hadis aytdi", degan (Romahurmuziy, 1987:203).

Shuni ham aytib o'tish lozimki, sahobiylar tiriklik vaqtida tobeiylardan Said ibn Musayyab fatvo bergani manbalarda qayd etilgan. Tobeiylar orasida fiqhdagi yetti kishi mashhur bo'lgan. Ular: Said ibn Musayyib, Abu Bakr ibn Abdurahmon, Urva, Qosim, Abdulloh ibn Abdulloh, Xorija ibn Zayd va Sulaymon ibn Yazor.

Muhaddislar eng ulug' tobeiy kim degan savolga ham javob topishga harakat qilganlar. Imom Muslim rivoyat qilgan hadisda, "Tobeiylarning yaxshisi Uvays ismli kishidir", deyilgan (Imom Muslim, 2016:1059). Hadis ilmiga oid kitoblarning ko'pida imom Ahmad ibn Hanbal kabi olimlar Said ibn Musayyibni birinchi o'ringa qo'yadilar (Muhammad Abu Shahba, nashr yili ko'rsatilmagan:545). Basra ahli Hasan Basriyni, kufaliklar Alqama ibn Qays va Asvadni, makkaliklar esa, Ato ibn Abu Rabohni eng ulug' tobeiy deb hisoblaydilar.

Tobeiylar borasida olimlar o'z kitoblarida ma'lumot berib o'tganlar. Olimlardan Abdurahmon ibn Muhammad Qurtubiy Andalusiy (vaf. 1011-y.) "Ma'rifa at-tobein" (Muhammad Kattoniy, 2011:337), Muhibuddin Muhammad ibn Mahmud Bag'dodiy (vaf. 1245-y.) "Janna an-nozirin fi ma'rifa at-tobein" (Hoji Xalifa, 2021:274), Qosim ibn Muhammad Qurtubiy (vaf. 1245 y.) "at-Tabyin an manoqib man urifa bi-Qurtuba min at-tobein" (Hoji Xalifa, 2021:354) asarlarini yozganlar. Bulardan tashqari hadis roviylariga bag'ishlangan tabaqot, tarojim va shu kabi asarlarda tobeiylar haqida batafsil to'xtalib o'tganlar. Jumladan, Ibn Sa'dning (vaf. 845-y.) "Tabaqot", Imom Zahabiyning (vaf. 1348-y.) "Siyar a'lom an-nubalo", Xatib Bag'dodiyning (vaf. 1071-y.) "Tarix Bag'dod" va boshqa juda ko'p manbalarda tobeiylar haqida ma'lumotlar kelgan.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tobeiylar – Payg'ambar Muhammadni (s.a.v.) ko'rmagan, ammo sahobiylar bilan uchrashib, ulardan ilm olib, ishlarini davom

ettirgan hadis ilmidagi roviylar tabaqasining biri hisoblangan musulmonlardir. Ular Qur'on oyatlari hamda hadis sharifga dalolatiga binoan sahobiylardan keyin Rasulullohga (s.a.v.) yaqin davrda yashagan odamlardandir.

Ular islom ta'limoti va hadis ilmining saqlanishi, rivojlanishi va keyingi avlodlarga sof holda yetkazilishida bebaho xizmat qilgan ilmiy muhit vakillaridir. Hadis ilmida ularning o'zni katta bo'lib, ko'pgina mashhur roviylar aynan tobeiylar qatorida bo'lgan. Ularning faoliyati natijasida hadis ilmi qoidalari shakllangan hamda hadislarning ishonchli tarzda uzatilishi ta'minlangan.

Tobeiylar o'zlarining taqvodorligi, ilmga bo'lgan ehtirosi va ehtiyotkorligi bilan ajralib turadilar. Ular har bir hadisni rivoyat qilishda uning isnodiga, roviyning adolati va siqa bo'lishiga katta e'tibor berganlar. Bu esa hadis tanqidi va rivoyat ilmlarining rivojiga zamin yaratdi. Ular orasida fiqh, tafsir va tasavvufda mashhur bo'lganlar ham ko'p bo'lib, ilmning turli sohalarida faoliyat yuritdilar.

Tobeiylar nafaqat hadisni rivoyat qilish, balki uni tushunish va amalda qo'llashda ham katta ahamiyat berganlar. Ular ustozlari bo'lgan sahobiylardan olgan ilmni hurmat bilan qabul qilgan va o'zlaridan keyingi avlodlarga sidqidildan yetkazganlar. Ayniqsa, hadislar orqali shariatning amaliy qoidalarini tarqatishda va fiqhiy mazhablar poydevorini qo'yishda tobeiylarning hissasi nihoyatda katta bo'lgan.

Tobeiylar islom ummatining ilm merosida betakror o'rin egallaydi. Ular xorijiy, mo'tazila, rofi'ziy kabi adashgan firqalar bilan kurashgan tabaqa hisoblanadi.

### MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ayniy, Abdurahim. (2011). Sharh alfiya al-Iroqiy fi ulum al-hadis. Sano: Markaz an-Nu'man.
2. Afof Abdulg'ofur. (1428/2008). Juhud al-mara fi nashr al-hadis va ulumih. Al-Madina. Umm al-quro.
3. Bustiy, Ibn Hibbon. (1973). As-Siqot. Haydarobod: Doira al-ma'orif.
4. Buxoriy, Muhammad. (2002). As-Sahih. Dimashq: Dor Ibn Kasir.
5. G'ovriy, Sayyid Abdulmojid. (2009). Al-Madhal ila dirosa ulum al-hadis. Bayrut: Dor Ibn Kasir.
6. Zahabi, Shamsiddin. (1996). Siyar a'lo an-nubalo. Bayrut: Muassasa ar-Risola.
7. Zahabi, Shamsiddin. (1990). Tarix al-islom va vafoyot va-l-a'lom. – Bayrut: Dor al-kitob al-arabiy.
8. Ibn Saloh. Ulum al-hadis. (1986). Bayrut: Dor al-fikr.

9. Asqaloni, Ibn Hajar. (2000). *Fath al-boriy*. Ar-Riyoz: Dor as-salom.
10. Asqaloni, Ibn Hajar. (2013). *Fath al-boriy*. Damashq: ar-Risola.
11. Iroqiy, Zayniddin. (2023). *At-Taqyid va-l-izoh*. Damashq, Dor al-fayho.
12. Itr, Nuriddin. (1988). *Manhaj an-naqd fi ulum al-hadis*. Damashq: Dor al-fikr.
13. Kattoniy, Muhammad. (2011). *Ar-Risola al-mustatrafa*. Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya.
14. Kufiy, Ibn Abu Shayba. (2015). *Al-Musannaf*. Ar-Riyoz: Dor kunuz Ishbiliyya.
15. Qoriy, Ali Haraviy. (1999). *Sharh sharh nuxba al-fika fi mustalah ahl al-asar*. Bayrut: Dor al-Arqam.
16. Qrutubiy, Ibn Abdul Barr. (1967). *At-Tamhid*. Rabot: Dor al-hadis.
17. Maqdisiy, Muhammad. (1981). *Masala al-uluv va-n-nuzul fi-l-hadis*. Al-Kuvayt: Maktaba al-Kuvayt.
18. Mizziy, Jamoliddin. (1992). *Tahzib al-kamol fi asmo ar-rijol*. Bayrut: Muassasa ar-Risola.
19. Molikiy, Muhammad. (2002). *Al-Qavoid al-asosiyya, fi ilm mustalah al-hadis*.
20. Molikiy, Muhammad. (2000). *Al-Manhal al-latif fi usul al-hadis ash-sharif*. Al-Madina: Maktaba al-ilmiyya.
21. Muhammad Abu Zahv. (1984). *Al-Hadis va-l-muhaddisun*. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya.
22. Muhammad Abu Shahba. *Al-Vasit fi ulum va mustalah al-hadis*. Al-Qohira: Maktaba as-sunna.
23. Naysoburiy, Hokim. (1977). *Ma'rifa ulum al-hadis*. Al-Madina: Maktaba al-ilmiyya.
24. Naysoburiy, Muslim. (2016). *Sahih*. Bayrut: Muassasa Risola.
25. Naysoburiy, Muslim. (2006). *Sahih*. Ar-Riyoz: Dor Toyyiba.
26. Romahurmuziy. (1987). *Al-Muaddis al-fosil bayn ar-roviiy val voiy*. Damashq: Dor al-fikr.
27. Sayyid Muhammad Sayyid Nuh, Abdurazzoq Xalifa. (2001). *At-Tobeun va juhuduhum fi xidmat al-hadis an-Nabaviy / Majalla markaz buhus va-s-sunna*. Qatar: № 10.
28. Saxoviy, Muhammad. (2005). *Fath al-mug'is bi sharh alfiyat al-hadis*. Ar-Riyoz: Dor al-minhoj.
29. Saxoviy, Shamsuddin Muhammad. (2008). *Sharh at-taqrib va-t-taysir*. Ammon: ad-Dor al-asariyya.
30. Suyuti, Jaloliddin. (2016). *Tadrib ar-roviiy fi sharh taqrib an-Navaviy*. Al-Madina: Dor al-Yusr.
31. Tabriziy, Ali Abu Hasan. (2008). *Al-Kofiy fi ulum al-hadis*. Ammon: Ad-Dor al-asariyya.
32. Tahhon, Mahmud. (2004). *Taysir mustalah al-hadis*. Ar-Riyoz: Maktaba al-maorif.
33. Fasaviy, Ya'qub. (1974). *Kitob al-Ma'rifa va-t-tarix*. Bag'dod: Al-Irshod.
34. Hasaniy, Muhammad. (2003). *Al-Qavoid al-asosiyya fi ilm mustalah al-hadis*. Bayrut: nashr joyi ko'rsatilnagan.
35. Hoji Xalifa. (2021). *Kashf az-zunun*. Bayrut: Muassasa al-Furqon.

## REFERENCES

1. Ayni, Abdurahim. (2011). *Sharh Alfiiyya al-Iraqi fi Ulum al-Hadith*. Sanaa: Markaz an-Nu'man.
2. Afaf Abdulghafur. (1428/2008). *Juhud al-Mar'a fi Nashr al-Hadith wa Ulumih*. Al-Madina: Umm al-Qura.
3. Busti, Ibn Hibban. (1973). *As-Thiqat*. Hyderabad: Da'ira al-Ma'arif.
4. Bukhari, Muhammad. (2002). *As-Sahih*. Dimashq: Dar Ibn Kathir.
5. Ghawri, Sayyid Abdulmajid. (2009). *Al-Madkhal ila Dirasa Ulum al-Hadith*. Beirut: Dar Ibn Kathir.
6. Dhahabi, Shamsuddin. (1996). *Siyar A'lam an-Nubala*. Beirut: Mu'assasa ar-Risala.
7. Dhahabi, Shamsuddin. (1990). *Tarikh al-Islam wa Wafayat al-A'lam*. Beirut: Dar al-Kitab al-Arabi.
8. Ibn Salah. (1986). *Ulum al-Hadith*. Beirut: Dar al-Fikr.
9. Asqalani, Ibn Hajar. (2000). *Fath al-Bari*. Ar-Riyadh: Dar as-Salam.
10. Asqalani, Ibn Hajar. (2013). *Fath al-Bari*. Damascus: ar-Risala.
11. Iraqi, Zaynuddin. (2023). *At-Taqyid wa al-Idah*. Dimashq: Dar al-Fayha.
12. Itr, Nuruddin. (1988). *Manhaj an-Naqd fi Ulum al-Hadith*. Dimashq: Dar al-Fikr.
13. Katani, Muhammad. (2011). *ar-Risala al-Mustatrafa*. Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya.
14. Kufi, Ibn Abu Shayba. (2015). *Al-Musannaf*. Ar-Riyadh: Dar Kunuz Ishbiliyya.
15. Qari, Ali Harawi. (1999). *Sharh Sharh Nukhbat al-Fikar fi Mustalah Ahl al-Athar*. Bayrut: Dar al-Arqam.
16. Qurtubi, Ibn Abd al-Barr. (1967). *At-Tamhid*. Rabat: Dar al-Hadith.
17. Maqdisi, Muhammad. (1981). *Mas'ala al-Uluww wa an-Nuzul fi al-Hadith*. al-Kuwait: Maktaba al-Kuwait.
18. Mizzi, Jamaluddin. (1992). *Tahdhib al-Kamal fi Asma' ar-Rijal*. Beirut: Mu'assasa ar-Risala.
19. Maliki, Muhammad. (2002). *al-Qawa'id al-Asasiyya fi Ilm Mustalah al-Hadith*.
20. Maliki, Muhammad. (2000). *al-Manhal al-Latif fi Usul al-Hadith ash-Sharif*. al-Madina: Maktaba al-Ilmiyya.
21. Muhammad Abu Zahw. (1984). *al-Hadith wa al-Muhaddithun*. Beirut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya.
22. Muhammad Abu Shahba. *al-Wasit fi Ulum wa Mustalah al-Hadith*. Cairo: Maktaba as-Sunna.
23. Naysaburi, Hakim. (1977). *Ma'rifa Ulum al-Hadith*. al-Madina: Maktaba al-Ilmiyya.
24. Naysaburi, Muslim. (2016). *Sahih*. Beirut: Mu'assasa Risala.
25. Naysaburi, Muslim. (2006). *Sahih*. Ar-Riyadh: Dar Tayyiba.
26. Ramahurmuzi. (1987). *al-Muhaddith al-Fasil Bayna ar-Rawi wa al-Wa'i*. Damascus: Dar al-Fikr.
27. Sayyid Muhammad Sayyid Nuh, Abdurazzoq Khalifa. (2001). *at-Tabi'un wa Juhuduhum fi Khidmat al-Hadith an-Nabawi / Majalla Markaz Buhuth wa as-Sunna*. Qatar: No.10.

28. Sakhawi, Muhammad. (2005). *Fath al-Mughith bi Sharh Alfyyat al-Hadith*. Ar-Riyadh: Dar al-Minhaj.
29. Sakhawi, Shamsuddin Muhammad. (2008). *Sharh at-Taqrif wa at-Taysir*. Amman: ad-Dar al-Asriyya.
30. Suyuti, Jalaluddin. (2016). *Tadrib ar-Rawi fi Sharh Taqrif an-Nawawi*. al-Madina: Dar al-Yusr.
31. Tabrizi, Ali Abu Hasan. (2008). *al-Kafi fi Uloom al-Hadith*. Amman: ad-Dar al-Asriyya.
32. Tahhan, Mahmud. (2004). *Taysir Mustalah al-Hadith*. Ar-Riyadh: Maktaba al-Ma'arif.
33. Fasawi, Ya'qub. (1974). *Kitab al-Ma'rifa wa at-Tarikh*. Baghdad: al-Irshad.
34. Hasani, Muhammad. (2003). *al-Qawa'id al-Asasiyya fi Ilm Mustalah al-Hadith*. Beirut: (publisher not indicated).
35. Haji Khalifa. (2021). *Kashf az-Zunun*. Beirut: Mu'assasa al-Furqan.

